

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA MA'SHUQA OBRAZINING BADIY TALQINI

Majidova Mahbuba Abdurazzoqovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Navoiy ma'shuqaning husnini bir tomonlama emas, har tomonlama ochishga harakat qiladi. U ma'shuqaning jisminigina tasvirlash bilan cheklanmaydi. Agar Navoiy ma'shuqaning faqat yuzi, ko'zi, labi, qaddi-qomati va hokazolarini tasvirlaganda, yor obrazi ancha kambag'al chiqqan bo'lar edi. Navoiyning o'nlab, yuzlab satrlari, hatto ba'zi maxsus g'azallari yorning kiyim kiyishini, bezaklarini tasvirlashga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ideal, ma'shuqa, g'azal, dildor, dilorom, dilrabo, dilkash, dilbar, diloso, moh, mahvash, oy, quyosh, sarvqad, go'zal, yor, mahbub, mahjabin, jon, jonon, gul, gulruxsor, gulandom, pari, parivash, pari-paykar, egma qosh, qoshi yo, qora ko'z, sarvinoz, siymtan.

Abstract: Navoi tries to reveal the beauty of his beloved not from one side, but from all sides. He does not limit himself to describing the body of his beloved. If Navoi had described only the face, eyes, lips, height, etc. of his beloved, the image of the beloved would have been much poorer. Dozens and hundreds of lines of Navoi, even some special ghazals, are devoted to describing the beloved's clothing and decorations.

Key words: ideal, lover, ghazal, dildor, dilorom, dilrabo, dilkash, dilbar, diloso, moon, mahwash, moon, sun, sarvqad, gozal, yor, mahbub, mahjabin, jon, jonon, gul, gulruxsor, gulandom, pari, parivash, pari-paykar, egma kash, kashi yo, kara koz, sarvinoz, siymtan.

Аннотация: Навои старается раскрыть красоту своей возлюбленной не с одной стороны, а со всех. Он не ограничивается описанием тела своей возлюбленной. Если бы Навои описал только лицо, глаза, губы, рост и т. д. своей возлюбленной, образ возлюбленной был бы гораздо беднее. Десятки и сотни строк Навои, даже некоторые особые газели, посвящены описанию одежды и украшений возлюбленной.

Ключевые слова: идеал, любовник, газель, дилдор, дилором, дилрабо, дилкаш, дилбар, дилосо, луна, махваш, луна, солнце, сарвакад, гозаль, йор, махбуб, махджабин, йон, джонон, гуль, гулруксор, гуландом, пари, париваш, пари-пайкар, egma kash, кашу йо, кара коз, сарвиноз, симымтан.

Navoiy lirikasidagi ma'shuqa obrazi analizida bosh va muhim masala bu obrazning real yoki real emasligi masalasidir. Navoiy g'azallarida yor ko'zining mastligi, shahloligi oshiqni asir qilishi, xolining qoraligi, yuzining anorga o'xshash qizilligi, uning ideal darajada go'zalligi, o'z go'zalligi bilan oshiqni tutqun qilib bog'lashi, lekin unga sevgi bilan javob bermay, undan qochishi, uni kuydirishi-bu obraz va tasvirlarning deyarli hammasi Navoiy lirikasida mavjuddir. Shoir bir o'rinda yor haqida yozadi:

Qayd aylarga junun ahlini bor ul ikki soch,
Har biri necha tugun, har tuguni necha quloch.
Turklarning qulidurmenki, nigorimning erur –
Qoshi turkona, qabog'i kengu ko'zi qiymoch.

Bunda o'zbek ayolining tashqi portreti juda real chizilgan: tugun-tugun qilib o'rilgan uzun-uzun ikki soch, turkona (soda, to'g'ri) qosh, keng qovoq, qiymoch ko'z, millati turk. Shoir ma'shuqa tasvirida traditsion-romantik yo'ldan borsada, lekin, uning ko'z o'ngida ko'p vaqt oti boru o'zi yo'q narsa emas, real, dunyoviy ayol obrazi turdi. Shoir qog'ozga shu real ayol tasvirini chizishga intildi.(1)

Navoiy ba'zi o'rinlarda mahbubasini malak va parilarga o'xshatadi:

Parimu yoki malak, yo'qsa ruhi pokmudur,-
Ki zohir o'lmadi muncha latofat insondin.

Bu bilan shoir ayolni ulug'lab, o'z sevgilisining husni va martabasini ulug'layapti.

Shoir yorni dunyodagi hamma jonli va jonsiz narsalardan yuqori qo'yadi. Chunki yor uning idealidir. Shuning uchun boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. Shoir deydi:

*Kimki oningdek malaksiymo, parivash yori bor,
Odamiy bo'lsa-pari birla malakdin ori bor.*

Ya'ni: kimningki malaksifat, pariga o'xshash yori (shoir o'z sevgilisini ko'zda tutadi) bo'lsa, u agar haqiqiy odam bo'lsa, pari va malaklardan or qilishi kerak. Shoir fikricha, inson dunyoda eng go'zal mavjudotdir. Go'zallikda unga na parilar, na malaklar tenglashadi:

*Ey ko'ngul, huru pari vasfin eshittim go'yo,
Hech qoyisi odamelig'da emas insoncha xo'b.*

Navoiy-haqiqiy inson! U shuning uchun insonni sevadi, insondan bahra oladi. Shoir o'z mahbubasiga murojaat qilib, parining sarvinihol qomatini quchish unga aslo zavq bera olmasligini aytadi:

*Qucharg'a sarvi niholi pari qadingdek emas,
Agar ketursa oni bog'bon quchog'i bila.*

Shoirning sevgilisi ham - haqiqiy inson. Haqiqiy inson bo'lgani uchun yuksak insoniy fazilatlarga ham ega. U o'zining shu insoniy fazilatlari bilan ham pari va malaklardan yuqori turadi va shuning uchun parilar unga qarab sajda qiladi:

*Odamiliq ko'rguzub qilding parivashlarni qul,
Odam uldurkim, - maloyik oni masjud ayladi.*

Boshqa bir g'azalida shoir yorining oldida o'zini kamsitib: kimki inson bo'lsa, uning sevgani ham inson bo'lishi kerak, men esa unga loyiq emasman! – deydi:

*Ey Navoiy, ul pari o'ltursa ham ozdur seni,
Kimki insondur, aning mahbubi ham inson kerak! (1)*

Shoir yor timsolida odamni naqadar ulug'laganini ko'rsatadi.

Lirikada ma'shuqa go'zalligini shoir ikki yo'l bilan: birinchidan, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, yor go'zalligini tasvirlashga bag'ishlangan maxsus g'azallar yozish yo'li bilan, ikkinchidan, lirik qahramon kechinmalarini tasvirlash, yorning u yoki bu sifatlari, belgilarini va hokazolarini lirik qahramonga eslatish, uning xotirasida ma'shuqa obrazini gavdalandirish yo'li bilan izchil ochib bordi. Ma'shuqa obrazi Navoiy g'azallarida, xususan ikkinchi yo'l bilan ko'proq va ta'sirliroq ochilgan. Yorning tasviri oshiqning haroratli ichki kechinmalari tasviri bilan qo'shilgan o'rinlarda shoirning poetik tasviridagi mahorati yanada avjiga chiqadi, o'quvchida alohida kuchli hissiyot uyg'otadi.

Navoiy ma'shuqa haqida gapirar ekan yoki uning obrazini qog'ozga tushirar ekan, uning ko'z o'ngida yoki tasavvurida doim ideal, husnda ko'zi ham orzu qilingandek, qoshi ham, qaddi ham, yuzi ham-har tomonlama to'kis ayol turadi.

*Bor aningdekkim kerak ul ko'zu, qoshu, qadu yuz,
Olloh-olloh, kim ko'rubtur, husn bu yanglig' to'kuz...*

Shoir lirikasida yorning go'zalligi tobora aniqlashtirila boriladi. Shoir jononning yuzini tasvirlashga o'zining behisob yaxshi go'zal misra va baytlarini bag'ishlagan. Ko'p vaqt shoir ma'shuqaning yuzini nurli narsaga: goh oyga, goh chiroqqa, goh quyoshga o'xshatadi.

*Dema: "Kunduz!" - qarong'u tun edi. Chun pardadin chiqting,
Jahonni qildi kunduzdek yuzung mehrining anvori.*

Jonon kechasi yuzidan pardani olib, hamma yoqni kunduzgidek qilib yoritib yuborishi shu bahoni taqozo qiladi. Lekin bunda ijodiy fantaziya, yoqimli mubolag'a tasvirga joziba va originallik bag'ishlamoqda. "Favoyid ul-kibar" dagi g'azallardan birida shoir yozadi:

*Yuzung oldida quyosh vasfini qilmoqlik erur,
Sham' yuzini quyosh o'llig'a qilmoq ta'rif. (6)*

Shoir yor yuzini quyoshdan ham yorug' deyish bilan yana mubolag'aga yo'l qo'ymoqda.

*Yuzungga ulki, quyosh tobi berdi, - yuz ming shukr,
Quyosh kibi meni ham ishqing ichra pok etti.*

Ma'shuqaning yuzi o'zidan shunday kuchli harorat va yorug'lik chiqaradiki, unga faqat quyosh va oshiq tob berishi mumkin. Bunday haroratga oshiqning quyosh kabi chidashining shunisi yaxshiki, uning ishq haroratda yanada pokroq bo'ladi, o'zi yanada toblanadi, chidamli bo'ladi. Jononning nurli yuzi kishidagi hamma ifloslik va yaramasliklarni kuydiruvchi, yaxshi xislatlarni tarbiyalovchi bir zo'r kuch sifatida tasvirlanmoqda.

Shoir ma'shuqa og'zini tasvirlashga kelganda, uning kichikligini maqtaydi, Oshiqning ko'zi shunday o'tkirki, eng kichik bir zarra ham undan yashirinib qololmaydi, lekin shunday o'tkir ko'z ma'shuqaning yuziga tikilib, uning og'zini ko'rolmaydi:

*Yuzung mehri ichinda, ko'z solib og'zingni ko'rmasmen,
Agarchi zarra xurshed oldida ko'z din nihon ermas.*

Bu go'zalning kiprigini shoir xanjarga, goho yoy o'qiga, labini kishilarga tiriklik bag'ishlovchi obi hayotga yoki shirin suv oqadigan buloqqa, nafasini hayotbaxsh Iso nafasiga o'xshatadi. Yorning lablari tepasidagi yangi o'sib chiqayotgan tuklardan esa doim yoqimli hid kelib turadi. Uning tuklari (xat) ham, xoli ham, ko'zi ham, qoshi ham-qop-qora. Chunki ularni oshiqning quyoshga o'xshash haroratli yuzi o'z issig'i bilan kuydirib, qoraytirib qo'ygan:

*Qarodir xolu, xattu, ko'zu qoshing,
Magar borini kuydurmish quyoshing.*

Shoir yorning labini qimmatli qizil tosh-la'lga ham o'xshatadi. Lekin bu o'xshatish Navoiy davrida ancha shablonlashib qolgan edi. Shuning uchun u yo'l-yo'lakay bunday shablon o'xshatishlarni inkor etib, haqiqiy tasvirga intiladi.

*Uchuq labingda, emas reza inju la'l uzra,
Ki bargi gul uza bir qatra bole mish, bildim.*

Demak, yorning labi ustida uchuq ham bor. Shoir bunda labni la'lga emas, gul bargiga, uchuqni bir dona injuga emas, bir tomchi asalga o'xshatmoqda. Navoiy bu bilan tasvirda nihoyatda zo'r jonlilikka, tabiiylikka erishgan.

Navoiy ma'shuqaning og'zini o'nlarcha sifat-ot va ot-sifatlar bilan ataganidek, uning u yoki bu a'zosini ham bitta-ikkita sifat bilan emas, o'nlarcha sifat va xususiyat bilan tasvirlaydi.

Navoiy she'rlarida, masalan, dildor, dilrom, dilrabo, dilkash, dilbar, diloso, moh, mahvash, oy, quyosh, sarvqad, go'zal, yor, mahbub, mahjabin, jon, jonon, gul, gulruxsor, gulandom, pari, parivash, pari-paykar, egma qosh, qoshi yo, qora ko'z, sarvinoz, siymtan kabi o'nlab so'zlar "ma'shuqa" tushunchasini anglatadi.

Navoiy ma'shuqaning husnini bir tomonlama emas, har tomonlama ochishga harakat qiladi. U ma'shuqaning jisminigina tasvirlash bilan cheklanmaydi. Agar Navoiy ma'shuqaning faqat yuzi, ko'zi, labi, qaddi-qomati va hokazolarini tasvirlaganda, yor obrazi ancha kambag'al chiqqan bo'lar edi. Navoiyning o'nlab, yuzlab satrlari, hatto ba'zi maxsus g'azallari yorning kiyim kiyishini, bezaklarini tasvirlashga bag'ishlangan. Shoir bir g'azalda mahbubaning yashil rang to'n kiygani, to'ning tugmalari esa tilladan ekani va bunday kiyim bilan uning qaddi ko'karib turgan apelsin daraxtiga, tugmalari uning mevasiga o'xshashligini yozadi:

*Yashil to'n birla oltun tugmalardan xebu far anda,
Qading noranji ra'no naxlidur, butgan samar anda.*

Boshqa bir g'azalda esa shoir ma'shuqaning savsan (gulsapsar) rang to'n kiygani va bu bilan u binafsha barglariga burkangan shamshod daraxtga o'xshagani, aytiladi:

*Savsani to'n birla ul qad savsani ozod erur,
Yo binafsha bargidin zeb aylagan shamshod erur.*

Umuman, ma'shuqaga har qanday rangdagi to'n ham yarasha beradi. Chunki uning laqablaridan biri –"oy". Oy ham har xil rangli libosga o'ranadi:

*Qizil yoxud qaro, yo ko'k to'nung har bir erur mabsun,
Nechukkim oy libosi ham shafaq, ham kecha, ham gardun.*

Ammo unga ko'proq qizil rangdagi kiyim yarashadi. U oshig'iga ayniqsa shu qizil to'nda go'zal va yaxshi ko'rinadi:

*Gul sevarsenki, bu rang etgali xil'at ul sho'x,
Ranglar ichra erur ko'ngluma orom qizil.
Otashin gulbargidin xil'atki jononimdadur,
Xil'at ermas, ul bir o'tdurkim, mening jonimdadur.*

Boshqa bir matla'da qizil to'n kiyib, lolazorda yurgan yor tog' kakligiga o'xshatiladi:

*Jilvamu aylar qizil to'n birla har yon ul pari,
Yo magarkim, lolazor ichra kezar kabki dari. (7)*

Ma'shuqa ko'proq gul rang ko'ylak kiyadi. Undan gulga xos yoqimli ko'rinish va hid tarqalib turadi:

*Ko'nglaking bargi gulu ustida gulrang to'shak,
Gul kibi jisming uza o'ylaki, gulgun ko'nglak.
Ko'nglaking bo'yidin o'ldim, atridin topdim hayot,
Qaysi gul bargida bor erkin bu yanglig' rangi bo'.*(7)

Ma'shuqaning oyog'ida ko'p vaqt etik bo'lib, oshiq uning etigini tortib, changini yuzi bilan artib qo'yishga hozir:

Har ayog'idin o'tuk tortib, aritsam yuz bila...

Yor obrazining ikkinchi muhim tomoni uning ichki dunyosi masalasidir. Navoiy lirikada bu masalaga ham ko'p to'xtaladi. Shoir o'z mahbubasini ba'zi o'rinlarda yaxshi xulqlar egasi qilib, go'zal va mehribon, dilbar va nozanin qilib tasvirlaydi. Bir g'azalda yozilishicha, bunday yaxshi sifat va xulqlarni unga azalda xudoning o'zi inoyat qilgan:

*Zihi azalda karam aylabon sanga xalloq,
Karim xil'at ichinda makorimul axloq.*

"Favoyid ul - kibar" dagi boshqa bir g'azalda ma'shuqaning axloqi husniga monandligi, shirin so'zligi tarannum qilinadi:

*O'xshar axloqinga husnunki, erur
Yaxshilik lozimasi yaxshi qilig'.
Husnunga o'xshadi jonbaxsh so'zung,
Kim bori o'zi silig', so'zi silig'.*

Bir qancha o'rinlarda ma'shuqaning ishq masalasidagi zolimligi uning kiyinishi orqali ochiladi. Masalan, u oshiqlarining qonini to'kmoqchi yoki to'kkan bo'lsa, albatta, urushga chiqqan yoki birovga g'azab qilmoqchi bo'lgan shohlar kabi qizil to'n kiygan bo'ladi:

*Ne uchun kiymish qizil to'n dahr bo'stonida gul,
Gar oqizmoq istamas oshifta bulbul qonini.
Ey Navoiy, qatl uchun gar xud qizil to'n kiydi yor,
Basdur ul to'n rangini muhtoji qatlu kin erur.
To'kti qon gulgun libosin kiygach, ul xo'blar shahi,
Qon to'kar ermish qizil to'n kiya beshak shohlar.
Telbalar qatli qizil qilmish libosin, ohkim,
Bir yo'li devonalar qoniga kirmish ul pari.*

Quyidagi baytlardan, masalan, yorning boshidagi sochi orasiga gul sanchib olgani, telpagini qiyshiq kiygani, etagini beliga qistirib olganidan uning g'ayratliligi, sho'xliligini anglash mumkin:

*Yorab, bu ne guldurki, boshiga chechak sanchar,
Goh egri qo'yar bo'rkini, goh belga etak sanchar.*

Ammo ma'shuqa xarakteridagi asosiy xususiyat, yuqorida aytganimizdek, uning vafosizligidir. Yorning vafosizligi murakkab masaladir. Bir qarashda Navoiyning uning yaxshi xulqlarini maqtashi bilan salbiy xususiyatlarini qoralashi o'rtasida jiddiy qarama-qarshilik barga o'xshab ko'rinadi. Haqiqatda esa bunday qarama-qarshilik yo'q. Ma'shuqaning asl tabiatida bunday yomon xususiyatlar yo'q. Uni Olloh har tomonlama tashqi qiyofasini ham, ichki qiyofasini ham ideal ravishda go'zal qilib yaratgan. Lekin ma'shuqa dunyoda, jamiyatda, xalq orasida yashaydi. U yashagan bu dunyoda, uni qurshagan kishilar orasida esa vafo rasm emas. Shoir shunday el haqida yozadi:

*Elda chun yo'qtur vafo, -sahrog'a qildim azmkim,
Xalq ila ko'rguncha kishvar, vahsh ila sahro ko'ray.*

Oshiq – shoir bunday el dastidan sahroga yuz o'girishga qasd qiladi. Mana shu muhitda ma'shuqa tarbiya topgan. Ma'shuqaning xakteri shunday muhit tarbiyalab yetishtirgan ijtimoiy bir hodisadir. Ma'shuqaning odamlarga munosabatlari ham shu muhitning, shu tarixiy sharoitning mevasidir. Hamma odamlar qatori ma'shuqa ham shu muhitga oyoq-qo'li bilan bog'langan. Shuning uchun u yashagan joy va muhitni shoir "dahr bog'i" deb atab, ma'shuqadan shikoyat qiladi.

Navoiy lirikasida ma'shuqa obrazining sifatlari, xakteri, tabiati, hayotiy qarashlari, yuksak darajadagi didi, farosati, yaxshi va yomon fazilatlarini, uning oldidagi vazifalari o'ziga xos tarzda

ochib berilgan. Shoir she'rlarida ma'shuqa obrazi orqali insoniy fazilatlarni ulug'ladi. Ko'plab g'azallari markazida ma'shuqaning o'rni borligiga va uni bosh qahramon sifatida ko'rishga bir nechta dalil va isbotlarni keltiradi. Bunda Navoiy o'xshatishni, qiyoslashni, sifatlashni, ta'rif-u tavsifni, va muallif bundan nima maqsadda foydalanganini, muddaosi ne ekanligini o'z o'rnida yorita bilgan. Demak, Navoiy g'azallari ana shunday baland ruhda bitilgan. Biz birgina ma'shuqa obrazidagi o'ziga xosliklarni ko'rib chiqdik, hali buyuk daho she'riyati qatida qancha mavzular yoritilishi kerak ekanligi ilm ahllari uchun ummon ostidagi gavaharni topishdek barobardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: ФАН, 1961.
2. Алишер Навоий. Бадое ул-бидоя. МАТ. I том. – Тошкент: Фан, 1987.
3. Алишер Навоий. Наводир ун-нихоя. МАТ. II том. – Тошкент: Фан, 1987.
4. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. III том. – Тошкент: Фан, 1988.
5. Алишер Навоий. Наводир уш-шаббоб. МАТ. IV том. – Тошкент: Фан, 1989.
6. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. МАТ. VI-том. – Тошкент: Фан, 1990.
7. Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент. 2007.
8. Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони. VI томлик. IV-том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972-й, –372 б.
9. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
10. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965.

